

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasida
korrupsiya va boshqa salbiy holatlarni oldini olish borasida amalga
oshirilayotgan ishlar yuzasidan
MA'LUMOT**

1.2.2.4

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasida Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2023-yil 11-may sanasida Sanepidqo'mda **Ichki ishlar vazirligi, Ichki ishlar akademiyasi, Toshkent Davlat yuridik universiteti** mas'ul xodimlari ishtirotida "**Korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda bu illatga qarshi kurashish har birimizning muhim burchimiz**" mavzusida davra suhbat o'tkazildi. 2023-yilning 8-iyuldan 15-iyul sanasiga qadar Sanepidqo'm tizimidagi xodimlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha **O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi** bilan hamkorlikda "**Korrupsiyaga qarshi kurashishning umumiy asoslari**" mavzusidagi maxsus o'quv-kursi tashkil etildi. Sanepidqo'm tizimidagi 761 nafar xodim maxsus o'quv-kursini muvaffaqiyatli yakunlab, **O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining** maxsus sertifikatlarini qo'lga kiritdilar.

Sanepidqo'm raisi hamda O'zbekiston Respublikasi Tovar xom-ashyo birjasi rahbari tomonidan tasdiqlangan reja-grafik asosida 2023-yilning 8-iyundan 11-avgust kuniga qadar o'quv kursi tashkil etildi. Mazkur o'quv kursida **O'zbekiston Respublikasi Tovar xom-ashyo birjasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan o'quv-kursida** Sanepidqo'm tizimidagi 220 nafar bosh hisobchi o'qishi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi **Sanitariya-epidemiologiya 4-sonli hay'at yig'ilishi** o'tkazildi. Mazkur hay'at yig'iishi qarorida Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar tanqidiy muhokama qilindi hamda tegishli topshiriqlar berildi.

Sanepidqo'mning rasmiy web-saytida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bandi alohida <https://sanepid.uz/karupsiyaga-qarshi-kurashish> tashkil etildi va ma'lumotlar joylanib borilmoqda hamda murojaatlar yo'llash uchun imkoniyat yaratildi. Shu bilan birgalikda Sanepidqo'm tizimidagi muammo va takliflarni yo'llash imkonini beruvchi [@sanepidcommulogotuzbot](https://t.me/sanepidcommulogotuzbot) yo'lga qo'yildi.

Sanepidqo'mning **2022-yil 12-apreldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish to'g'risida"**gi 29-sonli buyrug'ining 3-8-10-ilovalariga muvofiq Korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilganda xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament, Korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko'rib chiqish reglamenti hamda Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizomlardan foydalangan holda ish olib borilmoqda.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
bo'limi boshlig'i**

E.Danayev

